O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
SAMARAQAND DAVLAT
UNIVERSITETI

Ro'yxatga olindi:
№ 60230600 – 1.16
2021- yil "__"_____

"TASDIQLAYMAN"
SamDU rektori:
_____ R.I.Xalmuradov
2021 - yil "__"_____

NUTQ MADANIYATI VA OAV TILI
FAN DASTURI

Bilim sohasi:	200000 – Gumanitar soha
Ta'lim sohasi:	230000- Gumanitar fanlar
Ta'lim yo'nalishi:	60230600 – Noshirlik ishi ta'lim yo'nalishi

Fan dasturi SamDU O‘zbek tilshunosligi kafedrasining 2021-yil 7-may dagi 15-son yig‘ilishida muhokamadan o‘tgan va fakultet kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri: **dots. Sh.Mahmadiyev**

Fan dasturi Filologiya fakulteti o‘quv-uslubiy kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (2021-yil 22-may dagi 8 sonli bayonnoma).

Fakultet o‘quv-uslubiy kengash raisi: **dots. Sh.Mahmadiyev**

Fan dasturi Filologiya fakulteti Ilmiy kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (2021-yil 26-may dagi 8- sonli bayonnoma).

Fakultet ilmiy kengash raisi **prof. A.Pardayev**

Kelishildi:
SamDU o‘quv ishlari bo‘yicha propektor **prof. A.Soleyev**

Fan/modul kodi NMVOAVTM3005	O‘quv yili 2023-2024	Semestr 6	ECTS – Kreditlar 4	
Fan/modul turi Majburiy	Ta’lim tili O‘zbek		Haftadagi dars soatlari	
1.	Fan nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)
	Nutq madaniyati va OAV tili	60	60	

2.

I. Fanning mazmuni

«Nutq madaniyati va OAV tili» fani madaniy nutq tuzish, ifodali o‘qishga o‘rgatishni, mutolaa madaniyatining talablari, qonun-qoidalarini o‘zlashtirishni, millat va mamlakat hayotida kechgan ijtimoiy-tarixiy, ruhiy-ma’naviy, adabiy-estetik jarayonlarni tushunish, og‘zaki va yozma nutq me’yorlari bo‘yicha muayyan ko‘nikma hosil qilishni maqsad qiladi.

«Nutq madaniyati va OAV tili» fani «Madaniyatshunoslik», «Yozma nutq me’yorlari», «Davlat tilida ish yuritish», «Hozirgi o‘zbek adabiy tili», «Mutaxassislikka kirish», «Darslikdan foydalanish metodikasi», «Adabiyot nazariyasi», «Mumtoz adabiyot tarixi», «Sotsiologiya», «Psixologiya» fanlari bilan aloqador.

Ushbu fanni o‘qitish orqali o‘zbek tili va adabiyotini tarixiy va nazariy poetika, jahon adabiyoti kontekstida tushunadigan, og‘zaki va yozma nutqi ravon, barmoq va aruz vaznidagi she’rlarni, badiiy matnni ifodali o‘qiy oladigan, nutq madaniyati va notiqlik san’ati bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni egallagan, zamonaviy ta’lim texnologiyalarini chuqur o‘zlashtirgan, davr talablariga javob beradigan yuksak malakali pedagog kadrlar va ilmiy xodimlar tayyorlash ko‘zda tutiladi.

II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu. «Nutq madaniyati va OAV tili» faniga kirish. Notiqlik san’ati – ritorika tarixidan.

Fanning maqsad, vazifalari. Nutq madaniyati tushunchasi va tarixi. Nutq madaniyati va muomala odobi. Mumtoz asarlarda nutq madaniyati, so‘zlashish odobi masalalari. Jamiyat va nutq madaniyati. Nutq madaniyatining boshqa fanlar bilan aloqadorligi. Nutq madaniyati va notiqlik san’ati.

Notiqlik san’atining shakllanish tarixi. Notiqlikning yuzaga kelish omillari. Yunon notiqligi. Qadimgi Yunoniston – notiqlik san’atining vatani. Qadimgi Gretsiyada notiqlar faoliyati. Xalq yig‘inlarining notiqlik san’atining shakllantirishdagi o‘rni. Ijtimoiy-siyosiy masalalarda omma e’tiborini tortishning muhimligi. Fikr va g‘oyalarni to‘g‘ri va ta’sirchan ifodalashning ahamiyati. Huquq tizimida notiqlikning o‘rni.

2-mavzu. G‘arbda – antik dunyo va O‘rta asrlarda notiqlik san’ati

Yunon ritorlarining og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmalarini egallashdagi faoliyatlari. Falsafa maktablarining notiqlik san’atiga munosabatlari. Aristotelning notiqlik san’ati taraqqiyotidagi xizmatlari.

Rim notiqlik san’ati. Rim notiqlik maktabining o‘ziga xosliklari. Sitseronning notiqlik san’ati haqidagi qarashlari. Notiqlik vazifalari.

3-mavzu. Sharqda – qadimgi Sharq va O‘rta Osiyoda notiqlik san’ati

Sharqda voizlik san’ati. Sharq notiqligi haqida ma’lumot. Sharq voizlarining qarashlari. Mumtoz asarlarda voizlik san’atining ulug‘lanishi. Husayn Voiz Koshifiy. «Futuvvatnomayi sultoniy» asarida notiqlikka doir qarashlari.

4-mavzu. Adabiy til me’yorlari va nutq madaniyati

Til me’yori lingvistik tushuncha sifatida. O‘zbek adabiy tili – umumxalq o‘zbek tilining oliy shakli. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining shakllanishi. Adabiy tilga ta’rif. Adabiy tilga xos muhim belgilar: me’yorlashganlik, xalqchillik, umummajburiylik, ko‘p vazifalilik, uslubiy tarmoqlanganlik, qayd etilganlik, tanlanganlik, barqarorlik va o‘zgaruvchanlik, zamonaviylik.

Me’yor ko‘rinishlari: fonetik, leksik, orfografik, orfoepik, so‘z yasash, so‘z qo‘llash me’yorlari; punktuatsion, sintaktik, stilistik me’yorlar.

Adabiy til nutq madaniyatining asosi sifatida. Adabiy til me’yorlarini egallashga to‘siq bo‘luvchi ba’zi holat va sabablar.

5-mavzu. O‘zbek tilining me’yoriy ko‘rinishlari

Me’yor tushunchasi. Davlat siyosatining til me’yoriga ta’siri. Adabiy tilning me’yoriyligi. Adabiy me’yor va badiiy adabiyot. Til me’yori va yozuv. Umumiy va xususiy me’yorlar. Me’yoriy ko‘rinishlar: imlo, urg‘u, talaffuz, tinish belgilari, leksik, grammatik, uslubiy, so‘z turkumlarida me’yor, so‘zlarning bog‘lanish qonuniyatlari, so‘z tartibi, nutqiy kamchiliklar – og‘zaki va yozma nutqdagi kamchiliklar, varvarizmlar, dialektizmlar, vulgarizmlar, jargonizmlar, orfografik va punktuatsion me’yorlar buzilishi, umumiy, xususiy, adabiy til.

6-mavzu. Nutqning kommunikativ sifatlari. O‘zbek nutqi madaniyatining asosiy xususiyatlari

Nutq sifatlari. Nutqning to‘g‘riligi – nutq madaniyatining birlamchi sharti. Nutqning aniqligi, mantiqiyligi, jo‘yaliligi, maqsadga muvofiqligi va ta’sirchanligi.

Til sofligi, nutq sofligi uchun kurash – umuxalq ishi. Nutq boyligi va ta’sirchanligi, ularga erishi yo‘llari.

Og‘zaki nutq xususiyatlari. To‘g‘ri talaffuz me’yorlari. O‘zbek tilida urg‘u. Olinma so‘zlar talaffuzi.

Yozma nutq xususiyatlari. Yozma nutqda oldindan hozirlanish xosligi hamda unda tahrir imkoniyatining mavjudligi. Matnni tahrirlash. Yozma

nutqning nisbatan to‘g‘ri va aniqligi. Imlo me’yorlari: yozma nutqda uchraydigan tipik xatolar va ularning tasnifi.

7-mavzu. O‘zbek tili stilistikasi va nutq madaniyati.

O‘zbek adabiy tilining vazifaviy uslublari. Jonli so‘zlashuv uslubi. Adabiy til uslublari: ilmiy uslub, rasmiy uslub, publitsistik uslub, badiiy uslub. Ushbu uslublarning o‘ziga xos xususiyatlari. Badiiy uslubning keng qamrovliligi. Uning tarmoqlanishi: poetik nutq, dramatik nutq, nasriy nutq kabilar.

8-mavzu. Publisistik uslubning ekstralingvistik shart-sharoitlari.

O‘zbek tili publisistik uslubning uslubning shakllanishi, taraqqiyot bosqichlari. Publisistik uslub va me’yor. Radioeshittirishlarning ekstralingvistik xususiyatlari. Teleeshittirishlarning ekstralingvistik xususiyatlari. Matbuot nashrlarining ekstralingvistik xususiyatlari.

9-mavzu. Publisistik uslub ko‘rinishlari va janrlar tasnifi.

Publisistik uslubning ko‘rinishlari: teleradioeshittirishlar, davriy nashrlar, elektron axborot tizimi. Gazeta, jurnal, axborotnoma, bulleten, hujjatli kino. Rubrika.

10-mavzu. Publisistik uslubning lingvistik xususiyatlari.

Publisistik matn shakllari. Publisistik uslubning leksik xususiyatlari. Publisistik uslubning morfologik xususiyatlari. Publisistik uslubning sintaktik xususiyatlari.

11-mavzu. OAV tili va uni o‘rganishning dolzarb muammolari.

OAV tilining information-kommunikativ mohiyati. Tilshunoslikda ommaviy axborot vositalari tilining tadqiqi. OAV tilining shakllanishida lingvistik omillarning o‘rni. OAV tilining fuksional-kommunikativ, uslubiy xususiyatlari. OAV tilida milliylik.

12-mavzu. OAV tilida adabiy til va nutq madaniyati.

Madaniyat, til, nutq tushunchalari. Tilshunoslikda nutq madaniyati. OAVda nutq madaniyatining me’yoriylik, kommunikativlik, etik aspekti talqini.

13-mavzu. Ommaviy muloqot – madaniy matniy muloqot.

Muloqot turlari, tavsifi va tasnifi. Ommaviy muloqot tushunchasi. Ommaviy muloqot mezonlari. Og‘zaki muloqot, yozma muloqot. Yozma nutq matniy muloqotdir. Og‘zaki nutq va matn munosabati. Ommaviy muloqot mezonlari, uslublari. Ommaviy muloqotning mohiyati.

14-mavzu. Gazeta tili – ommaviy muloqot uslubining asosiy tarkibiy qismi.

Ommaviy muloqot turning ichki uslubiy tarmoqlanishi: gazeta nutqi,

radio nutq, telenutq. Ularning o‘ziga xos xususiyatlari, OAVlarining eng umumiy shakli gazeta ekanligi. Matbuot ommaviy-ijtimoiy muloqot vositasi, ommaviy ijtimoiy-siyosiy adabiyot turi.

15-mavzu. Mustaqillik davri OAV tili va uslubida yangilanish va o‘zgarishlar

“Davlat tili to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi va amaldaligi. Istiqlol matbuotining adabiy tilimiz takomilidagi o‘rni. Milliy atamashunosligimiz muammolari va nutq madaniyati, ularning OAVlari tiliga ta’siri. Madaniy nutq mezonlarini tayin etishda matbuotning roli. Ommaviy axboriy notiqlik maromi va mezonlarini tayin etuvchi omillar. Ularning farqli xususiyatlari.

16-mavzu. Zamonaviy media tili va uslubi. Elektron nashrlar.

Zamonaviy media tushunchasi. Milliy OAV til va uslub imkoniyatlari. Media turlarida lisoniy-uslubiy o‘ziga xoslik. Zamonaviy televideniye va radio tilining asosiy xususiyatlari. Elektron nashrlar. Internet nashrlari. Sayt. Ijtimoiy tarmoqlar tili. Bloger va vlogerlik faoliyati.

III. Amaliy (yoki seminar yoki laboratoriya) mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar.

Amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Notiqlik san’ati – ritorika tarixidan.
2. Adabiy til me’yorlari va nutq madaniyati. O‘zbek tilining me’yoriy ko‘rinishla
3. Nutqning kommunikativ sifatlari. O‘zbek nutqi madaniyatining asosiy xususiyatlari.
4. O‘zbek tili stilistikasi va nutq madaniyati.
5. O‘zbek tilining huquqiy asosi. “Davlat tili to‘g‘risida”gi qonun sharhi. OAVda e’lon qilingan til to‘g‘risidagi materiallar tahlili.
6. O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari sharhi. OAV materiallarida qo‘shib yozish, ajratib yozish, chiziqcha bilan yozish, bo‘g‘in ko‘chirish va bosh harflar imlosiga doir xatoliklar tahlili.
7. OAV materiallarida tinish belgilarining qo‘llanishiga doir xatoliklar tahlili.
8. OAV materiallarida ilmiy va rasmiy uslubning qo‘llanishi.
9. OAV materiallarida so‘zlashuv va badiiy uslubning qo‘llanishi.
10. Publisistik janrlar va ularning o‘ziga xos xususiyatlari.
11. Gazeta tilida xabar, maqola, reklamalarga munosabat masalasi.
12. Milliy atamashunosligimiz muammolari va nutq madaniyati, ularning OAVlari tiliga ta’siri.
13. Zamonaviy media tili va uslubi. Elektron nashrlar tahlili.
14. Ijtimoiy tarmoqlar tili va uslubi.

	IV. Mustaqil ta'lim Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular: 1. "Davlat to'g'risida"gi qonunni o'rganish. 2. "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunini o'rganish. 3. "Noshirlik faoliyati to'g'risida"gi qonunni o'rganish. 4. Gazeta uslubiga doir nazariy adabiyotlar bilan tanishish. 5. Publisistik janrlardan biriga material tayyorlash. 6. OAV materiallari asosida leksik-morfologik me'yorning buzilishi ustida ishlash. 7. OAV materiallari asosida sintaktik me'yorning buzilishi ustida ishlash. 8. OAVning adabiy til takomilidagi o'rni. 9. Media tushunchasi, tili, uslubi. 10. Notiqlik san'ati tarixidan.
3.	**V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: - «Nutq madaniyati va mutolaa san'ati» fani tarixi, notiqlik san'ati, notiqlar faoliyatini; - nutq bo'limlari, notiqlik san'atining asosiy tushunchalarini; - nutq madaniyati asoslarini; - nutq madaniyatining umumiy va o'ziga xos xususiyatlari; - nutq sifatlari haqidagi muhim ma'lumotlarni; - nutq madaniyatining shaxs ma'naviy qiyofasini belgilovchi omillardan biri ekanligini *bilishi* zarur; - adabiy til me'yorlariga amal qilish; - rasmiy muloqot madaniyati talablarini anglash; - nutq sifatlarini belgilash; - notiqlikning asosiy talablarini belgilash; - nutq madaniyati talablariga amal qilish *ko'nikmalariga* ega bo'lishlari zarur; - til va madaniyat munosabatlarini anglash; - nutqni adabiy til me'yorlariga amal qilgan holda namoyon etish; - nutqni ta'sirchan, auditoriya e'tiborini tortadigan darajada obrazli tarzda ifoda etish *malakalarini* egallashlari zarur; - mutolaa san'atining taraqqiy etishiga ta'sir etgan muhim omillar va ushbu adabiyotning asosiy yo'nalishlari to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi; - mutolaa madaniyati va ritorikaning mazmun-mohiyati davriy hodisalar ta'sirida o'zgarib, boyib borishini bilishi va ulardan foydalana olishi; -talaba mutolaa san'atining nazariy masalalariga oid muammolar bo'yicha echimlar qabul qilish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.
4.	**VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:** • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • tarqatma materiallar; • ko'rgazmali qurollar;

	• Kompyuter; • Internet yangiliklari; • muammoli ta'lim; • qiyosiy tahlil.
5.	**VII. Kreditni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish
6.	**Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar hamda axbort manbalari** **1.Rahbariy adabiyotlar:** 1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. 2. Mirziyoyev Sh. Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga. // Xalq so'zi, 2020. 28-iyun. 3.Маҳмудов Н. Ўқитувчи нутқи маданияти. – Тошкент, 2007. 4. Қўнғуров Р., Бегматов Э., Тожиев Ё. Нутқ маданияти ва услубияти асослари. – Тошкент. 1992. 5. Каримов С. Ўзбек тили функционал стилистикаси. –Самарқанд. 2010. 6. Karimov S. Nutq madaniyati va mutolaa san'ati. O'quv qo'llanma.– Samarqand, 2020. **2.Qo'shimcha adabiyotlar:** 1. Шомақсудов А., Расулов И., Қўнғуров Р. Рустамов Ҳ. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент. 1983. 2. Расулов Р., Ҳусанов Н. Мўйдинов Қ. Нутқ маданияти ва нотиқлик санъати. – Тошкент, 2006. 3. Исламов Ў. Алишер Навоий асарларида нутқ маданияти талқини. Филол.ф.н.дисс. автореф. –Тошкент, 2011. 4. Рустамов А. Сўз хусусида сўз. – Тошкент, 1989. 5. Саидов У. Нутқ маданияти ва нотиқлик санъати. – Тошкент: Академия, 2007. 6. Тожиев Ё., Маллабоев М. Ўзбек нутқи маданияти ва услубият асослари. – Тошкент: Иқтисодиёт, 2006. 7.Қиличев Э. Ўзбек тилининг амалий стилистикаси. –Тошкент. 1996. 8.Абдусаидов А. Газета жанрларининг тили ва услуби. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2001. – 192 б. 9. Абдусаидов А. Мустақиллик ва оммавий ахборот воситалари фаолияти. Тил, жанр, маҳорат. Монография. – Самарқанд, 2016. - 205 б. 10.Худойқулов М. Журналистика ва публицистика. Ўқув қўлланма. - Тошкент: Университет, 2008.- 189б.

	3. Internet ma'lumotlari: 1. www.ziyo.net 2. www.lex.uz 3. www.gov.uz 4. www.literature.uz
7.	Fan dasturi Samarqand davlat universiteti O'quv-uslubiy кengashining 202_ -yil __-_____dagi ___-son bayonnomasi bilan ma'qullangan.
8.	**Fan/modul uchun mas'ullar:** S.M.Umirova – O'zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti, (PhD)
9.	**Taqrizchilar:** S.A. Karimov – SamDU, O'zbek tilshunosligi kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori (ichki). X. Xayrullayev – SamDCHTI professori, filologiya fanlari doktori (tashqi).